
**SILLIQ STVOLLI O‘QOTAR QUROLLARNING GURUHIY
TAALLUQLILIGINI ANIQLASH****Ma'mirov Bilolbek Azamat O'gli***Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi 3-Kurs 325-Guruh Kursanti***A.A.Oppoqxonov***Ilmiy Rahbar Iiv Akademiyasi Kriminalistik Ekspertizalar Kafedrasida O'qituvchisi
Kapitan*

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali hozirgi kundagi zamonaviy ballistik ekspertizaning imkoniyatlari, tasniflanishi, zamonaviy ballistikaning nazariy va huquqiy asoslariga tuxtalib o'tilgan. Bundan tashqari, silliq stvolli o'qotar qurollarning diagnostik ekspertizasini o'tkazishdagi dolzarb muammolar va ularning yeshimlari haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ballistika, stvoll, xodisa joyi, tadqiqotlar amalga oshirish, o'q izlari, patron, ekspertlar mahorati, daliliy ashyolar, tepkili mexanizm, qoldirilgan izlar, zarrachalar, ishlov asboblari.

Annotatsiya: *V dannoy stat'ye rassmatrivayutsya vozmojnosti, klassifikatsiya, a takje teoretiko-pravoviye osnovi sovremennoy ballistiki. Krome togo, obsujdayutsya aktual'niye problemi i puti ix resheniya pri diagnosticheskome obsledovanii gladkostvol'nogo ognestrel'nogo oruziya.*

Klyucheviye slova: Ballistika, stvoll, mesto prestupleniya, rassledovaniye, sledi pul', patron, ekspertniye naviki, dokazatel'stva, spuskovoy mexanizm, ostavlenniye sledi, chastitsi, sredstva obrabotki.

Annotation: *This article deals with the capabilities, classification, and theoretical and legal foundations of modern ballistics. In addition, current problems and their solutions in the diagnostic examination of smooth-bore firearms are discussed.*

Key words: *Ballistics, crime scene, investigation, bullet marks, cartridge, expert skills, evidence, trigger mechanism, traces left, particles, processing tools.*

Bugungi kunda jamiyat rivojlanishi bilan bir qatorda unda sodir bo'layotgan jinoyatlarning xam turli xil yangi ko'rinishlari paydo bo'lib bormoqda. Sodir etilgan jinoyatlarga to'la va xolisona baxo berishda, ularning tub moxiyatini aniqlashtirishda ekspertiza xulosalarining o'rni katta. CHunki, ekspertiza tadqiqotlari orqali jinoyat xodisasiga aloqador bo'lgan juda ko'plab xolatlar aniqlanishi mumkin.

Sud-ballistik ekspertizalariga tadqiqot uchun taqdim etiladigan o'qotar qurollar va ularga o'xshash boshqa qurilma hamda moslamalarning guruhiy taalluqliligi deyilganda, quyidagilar tushuniladi:

– qo‘lbola va zavodda yasalgan standart qurilma va moslamalarning o‘qotar qurollar turkumiga tegishliligi;

– o‘zgartirilgan, ba’zida, standart otuvchi qurilmalarni o‘qotar qurollarning muayyan turlariga tegishliligi;

– standart yoki o‘zgartirilgan o‘qotar qurollarning aniq rusumdagi o‘qotar qurollar turkumiga tegishliligi.

Tadqiq etilayotgan obyektlar (qurolga o‘xshash buyumlar, otuvchi moslama va mahsulotlar)ni guruhiy taalluqliligini aniqlashning asosi bo‘lib, o‘qotar qurolning tushunchasi va uning tasniflanishi, shuningdek, qurolning sifatga oid tavsiflari tizimi xizmat qiladi. Standart o‘qotar qurolning sifatga oid tavsiflari. Qurolsoz – mutaxassislar standart jangovar o‘qotar qurollar (bunday qurollar sirasiga artileriya qurollari ham, qo‘l o‘qotar qurollari ham kiradi) ega bo‘lishi lozim bo‘lgan uchta sifatga oid tavsiflarni – ballistik, manyovr qilish va ishlashining ishonchliligini ta’minlovchi xususiyatini alohida ajratib ko‘rsatadilar

Ballistik xarakteristikalar:

– o‘q otishning aniqligi va g‘ujligi;

– snaryad uchishining boshlang‘ich tezligi va kinetik energiyasi;

– turli maqsad uchun mo‘ljallangan snaryadlarning nishonga nisbatan kerakli ta’siri

– teshib o‘tuvchi va to‘xtatuvchi ta’siri, shikast yetkazuvchi ta’siri.

Manyovr qilishga oid tavsiflari:

– qurolning og‘irligi, uning o‘lchami va shakli;

– qurol bilan ishlashning qulayligi;

– qurolni olib yurish (safda yurganda, marsh davomida va jangda ko‘tarib yurish yoki tashish) uchun qulayligi;

– birorta joy hududida ishlatish va niqoblash (yashirish)ning qulayligi;

– o‘t ochishning qulayligi, tez o‘q otish va bir nishondan, o‘qotar qurolga nisbatan turlicha joylashgan boshqa nishonga tez yo‘naltirish.

O‘qotar qurolning ishlashiga doir ishonchliligini ta’minlovchi tavsiflari: – tarkibiy qismlarining yetarlicha mustahkamligi;

– o‘q otish jarayonida nisbiy xavfsizligi;

– hech qanday buzilish va ushlanishlarsiz ishlashi;

– qurol bilan ishlashning oddiyligi;

– qurol bilan ishlash va ishlashga o‘rganishning osonligi.

Harbiy qurollarning sanab o‘tilgan ushbu tavsiflari va xususiyatlari, tekshirilayotgan otuvchi qurilma va moslamalarning guruhiy taalluqliligini aniqlash bo‘yicha ekspertiza vazifalarini hal etishda katta ahamiyat kasb etadi. Tekshirilayotgan obyektlarning o‘qotar qurollar turkumiga tegishliligi mezonlari. Qurolsoz–ixtirochilar standart o‘qotar qurollarning juda ko‘plab rusum va namunalarini yaratadilar. Ekspert–kriminalistlar ham

juda ko‘plab turdagi otuvchi moslamalar, shuningdek, qo‘lbola usulda yasalgan moslamalarning tadqiqotlarini o‘tkazadilar. SHuning uchun qurolsoz–ixtirochilar 92 hamda ekspert–kriminalistlar tomonidan otuvchi moslamalarning sifatiga qo‘yiladigan talablar har doim ham o‘zaro mos kelavermaydi. Tadqiq etilayotgan obyektlar (qurolga o‘xshash buyumlar, otuvchi moslama va mahsulotlar)ning o‘qotar qurolga tegishlilikini aniqlashda, ekspert, o‘qotar qurol tushunchasi hamda qurolning mo‘ljallangan maqsadi va undan otilgan snaryadlarning shikast yetkazuvchi ta‘sirining energiyasi, shuningdek, qurolning tuzilishidagi asosiy belgilari belgilanadigan mezonlarga asoslanishi lozim. Qurolning morfologik (statik) va funksional (dinamik) belgilari o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Xususan, birorta obyektning o‘qotar qurolga tegishlilikini aniqlashda, ushbu qurol qismlarining mustahkamlik darajasini hamda ushbu quroldan otilgan snaryadning, kerakli zarar yetkazishi uchun zarur bo‘lgan boshlang‘ich tezligini ham aniqlash mumkin. Tadqiq etilayotgan obyektlar (qurolga o‘xshash buyumlar, otuvchi moslama va mahsulotlar)ning o‘qotar qurollar turkumiga (o‘qotar qurolga) taalluqliligini aniqlashda quyidagi mezonlar hisobga olinadi:

1. Qurol – o‘zining uchish yo‘nalishida turgan (duch kelgan) to‘siqlar (nishonlar, obyektlar)ga, ushbu yo‘nalishdagi harakat tezligi kattaligiga ko‘paytirilgan og‘irligi bilan ta‘sir qiluvchi snaryadlar, ya‘ni nisbatan unchalik katta bo‘lmagan qattiq jismlarni otish uchun mo‘ljallangan mexanizm. Binobarin, qurol o‘zidan otilgan snaryadga yo‘nalish berish uchun xizmat qiladigan maxsus tarkibiy qismi – to‘g‘ri shaklli otuvchi stvolining mavjudligi bilan tavsiflanadi.

2. Qurol – snaryadlarni, portlovchi moddalarning yonishidan hosil bo‘lgan gazlarning kengayishi yordamida otish (uloqtirish) mexanizmidir. Demak, qurol uchun quyidagilar xosdir:

– o‘q otilish vaqtida, o‘qning uchib chiqish yo‘nalishiga qarama– qarshi tomoni maxsus moslama (zatvor, stvol kanalining orqa qismi, kolodkaning qalqonchasi) bilan mahkam berkitilgan, portlovchi moddani saqlash va yonish kamerasi

– stvol kanali yoki stvoldan alohida bo‘lgan maxsus qism;

– orqaga «tepmaydigan» qurollar va unga o‘xshash moslamalarning yo‘naltiruvchi stvollaridagi ikki tomoni ochiq kanal yoki reaktiv snaryadlardagi zaryad joylashadigan maxsus qism zaryad bo‘limi.

3. Qurol – snaryadlarni portlovchi moddalarning detonatsiyalanishi (ko‘zg‘alishi) va yonishi natijasida otish (uloqtirish) mexanizmi. SHuning uchun, qurolning yo‘naltiruvchi tarkibiy qismidagi zaryad kamerasida, portlovchi moddalarning detonatsiyalanishi uchun mo‘ljallangan quyidagi moslama bo‘lishi zarur:

– og‘zidan o‘qilanuvchi qurol stvolining orqa qismida yondiruvchi tuynuk (ayrim qurollarda maxsus moslamali);

– uruvchi boyokli yoki urgichli maxsus mexanik qurilma yoki moslama.

4. Qurol – nishonni shikastlash uchun mo'ljallangan mexanizm, ya'ni, portlovchi moddalarning yonishi natijasida yetarlicha boshlang'ich tezlik beriladigan snaryadlar bilan turli jarohatlar yetkazuvchi mexanizm. Demak, qurol mos holda tur va kalibrga ega bo'lgan standart otuvchi qurilma uchun mo'ljallangan, minimal quvvatga ega bo'lgan patronning snaryadi va jangovar zaryad (portlovchi modda – porox) ni joylashtirish uchun zaryad kamerasi hamda stvol kanalining o'lchamlari bilan tavsiflanadi.

5. Qurol – yetarlicha mustahkamlik darajasiga va xavfsizlik hamda hech qanday buzilish va ushlanishlarsiz ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan ko'p marta ishlatishga mo'ljallangan mexanizm. SHuning uchun, qurol stvol kanali va zaryad kamerasi devorlarining parametrlari, shuningdek, yopish mexanizmining o'ziga xos xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Qurolning, ishlatiladigan jangovar o'q-dorilar bilan ifodalanuvchi ballistik xususiyatlari. Birorta obyekt (qurolga o'xshash buyumlar, otuvchi moslama va mahsulotlar) yoki obyektning o'qotar qurolga tegishlilikini aniqlashda, ushbu moslama yoki obyektning tuzilishiga xos belgilari va mustahkamlik darajasi, shuningdek, ishlatiladigan standart jangovar o'q-dorilar (patronlar), snaryadlar va poroxlar bilan ifodalanuvchi ballistik xususiyatlarini hisobga olish lozim. Binobarin, tadqiqot jarayonida nafaqat ushbu obyekt yoki moslamaning xususiyatlari, balki, ishlatiladigan jangovar o'q-dorilar, shuningdek, ushbu jangovar o'q-dorilarni ishlatishning tekshirilayotgan jinoyat ishi bo'yicha ma'lum bo'lgan holatlari ham e'tiborga olinishi kerak. Patronlarning ballistik xususiyatlari, turli ilmiy asarlar, ma'lumotnomalar, sud-tibbiyoti va kriminalistik tajribalarning nashr ettirilgan natijalaridan foydalanilgan holda hisobga olinadi. Standart patronlar, snaryadni gilzadan turtib chiqarish uchungina emas, balki, otilgan snaryadga stvol kanalida va uchish jarayonida yetarlicha energiya beradigan holda tayyorlanadi. Gilzaning snaryad mahkamlanadigan og'zi, ushbu snaryadning dastlabki (birlamchi) kiruvchi harakatini yo'naltiradi: oddiy (unitar) patronning gilzasi quroldan alohida hisoblangan zaryad kamerasi vazifasini bajaribgina qolmay, balki, qurol stvolining boshlang'ich qismi vazifasini ham o'taydi. Kriminalistik amaliyotdan ma'lumki, yuqori harorat yoki rel'sli transport vositasi g'ildiraklarining bosimi ta'sirida otilishda standart patronlarning o'qlari, turli nishon va jarohatlangan obyektlarda anchagina katta shikast yetkazishga yetarli energiyaga ega bo'ladi. Tabiiyki, otish vaqtida patronning gilzasi va kapsuliga tayanch, otilgan o'qqa esa – ozod kiruvchi harakat ta'minlangan holdagi quroldan foydalanib o'q otilganda, otilgan snaryadning boshlang'ich tezligi, quroldan foydalanmasdan (yuqorida aytilgan sharoitda) otilgandagiga qaraganda, kattaroq energiyaga ega bo'ladi. Sud-tibbiyot ma'lumotlariga asoslangan holda aytish mumkinki, harakatlanish (uchish) jarayonida 1–2 KGS*M kinetik energiyaga ega bo'lgan snaryad odamning o'lishiga olib keladigan darajada og'ir shikast yetkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu holda, standart kichik kalibrli patronning eng yengil vaznli (2,15 gramm) o'qining boshlang'ich tezligi 100 m/s ga yetadi. Zavod usulida yasalgan o'qotar qurollardan otilgan kichik kalibrli patronlar o'qlarining eng kichik

boshlang‘ich teziligi 210 m/s dan kam bo‘lmaydi. Bu kabi patronlardan stvolining uzunligi 42 mm bo‘lgan qo‘lbola usulda otilgan o‘qlarning tezligi esa stvol og‘zi kesimidan 5 metr masofada 212 m/s ga yetadi. Avtomat to‘ponchalardan otilgan, markaziy jang patronlarining o‘qlari tezligi 230 m/s dan ortib ketadi. Otilgan o‘qlarning bu kabi qiymatlarini ta‘minlay oladigan standart, 6,35 mm kalibrli to‘pponchalar stvolining uzunligi – 43 mm, 7,65 va 9 mm kalibrli to‘pponchalar stvolining uzunligi esa – 54 mm bo‘ladi. Amaliyotdan, stvoli bo‘lmagan revol‘verning baraban kamorasidan, stvolining uzunligi patron don bilan teng bo‘lgan qirqma miltiq, ichiga alohida «ichki stvol» quyilgan raketnitsadan otilgan patron o‘qlari odamga og‘ir tan jarohati yetkazgan holatlar ma‘lum. YUqorida ta‘kidlanganlarga asosan, ushbu qo‘lbola usulda yasalgan, shuningdek, o‘zgartirilgan otuvchi moslamalarni, agar ular o‘q otish uchun mo‘ljallangan va o‘lchamlariga ko‘ra ishlatiladigan patronlarga mos yo‘naltiruvchi kanal – stvolga ega bo‘lsalar, o‘qotar qurol deb hisoblash tavsiya qilinadi. Bundan tashqari, ishlatiladigan patronning uzunligiga teng uzunlikdagi stvolga ega bo‘lgan, porox zaryadi va snaryadi ushbu qurilmani o‘qlash va undan foydalanish, ya‘ni o‘q otish uchun yaroqli bo‘lgan og‘zidan o‘qlanuvchi qurilmani ham o‘qotar qurol deb hisoblash mumkin. Qo‘lbola usulda yasalgan va stvolining orqasidan o‘qlanuvchi qo‘rilmalarni o‘qotar qurol deb hisoblash uchun, o‘q otish jarayonida nafaqat standart jangovar o‘q-dorilar, balki, standart patronlarning ayrim qismlari, bundan tashqari, qurilish–montaj to‘ppochalarining patronlaridan ham foydalanish mumkinligini hisobga olish lozim. Masalan, turli o‘qotar qurollardan otish uchun patron sifatida, mos holdagi diametrli sochma o‘qlar lak yoki yelim bilan mahkamlangan «Javelo» kapsyullaridan foydalanish mumkin. Bu kabi qo‘lbola patronlar bilan odam badaniga og‘ir shikast yetkazilgan holatlar ma‘lum. Bunday patronlarning zarar yetkazuvchi kuchini oshirish uchun, kapsyul korpusiga porox sepiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T., 2020. – 45
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinovyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6196.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4125 son.
4. Xasanov SH.X., Turabbayev X.A., Xusanov A.D. Ballistik ekspertiza: Darslik. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. – 444 b
5. Trasologiya i trasologicheskaya ekspertiza. Uchebnik / Kantor I.V. (otv. Redaktor), YArmak V.A., Jigalov N.YU., Smol‘yakov P.P. – M., Rossii, 2002.

6. CHuryakov E. Podgotovka i naznachenije nekotorig vidov trasologicheskoy ekspertizi // O‘zbekiston Respublikasining ekspertlik xizmati: natijalar va rivojlanish yo‘nalishlari. – T., 2007. – S.52–56 b.

7. T.B.Mamatqulov, A.B.Babamurodov, F.E.To‘rayev va boshq. Kriminalistik texnika: Ma‘ruzalar kursi – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – 200 b.

8. G. F. Nikishin, X. T. Nazarov, SH. X. Xasanov, A. D. Xusanov Ichki ishlar organlari ekspert-kriminalistika xizmati xodimlarining ish faoliyatini tashkil etish: O‘quv qo‘llanma – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 47 b.

INTERNET SAYTLAR:

- 1.<https://www.lex.uz/>
2. <https://www.norma.uz/>
3. <https://www.adliya.uz/>
- 4.<https://www.standart.uz/>
- 5.<https://meningkonstitutsiyam.uz/>
- 6.<https://president.uz/>